



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI ERTAKLAR ORQALI NUTQINI
SHAKLLANTIRISH.**

Bahromova Maftuna

Termiz davlat pedagogika institute
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Dilfuza Azimova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishda tafakkurini rivojlantirishda ertaklarni o'rni va ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Nutq, ertak, og'zaki nutq, tafakkur, ta'lim va tarbiya, nutqiy faoliyat, o'qish, qayta hikoya qilish, jonlantirish.

Hozirgi zamonda har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Inson har tomonlama yetuk, barkamol shuningdek, jamiyatda aktiv bo'lishi uchun nutq juda katta ahamiyatga ega. Bola nutqini o'stirish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun boshlang'ich sinfga qadam qo'ygandan uni nutqiga e'tibor berish, turli xil yondashuvlarni amalga oshirish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni nutqini o'stirish tilni har tomonlama (talffuzi, lug'at boyligi, bog'lanishli nutqini, o'qish va yozish) ko'nikmalarini shakllantirishda ertaklar muhim vosita hisoblanadi. "Ertak" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib "gapiradi" degan ma'noni anglatadi. Ertaklar orqali o'quvchilarning nafaqat nutqi balik, dunyoqarashi, tafakkuri ham rivojlanadi. Azal-azaldan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ertak o'qitish bejiz emas. Ertaklar orqali o'quvchilar faol og'zaki nutq rivojlanadi. Ertaklar bolalarni ezgulik, vatanparvarlik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, halollik, mardlik ruhida tarbiyalaydi. Yovuzlik ustidan yaxshilikni g'alaba qozonishi bolalar qalbi va ongida ezgu fazilatlar shakllanishiga xizmat qiladi. Xalqimiz "Ertaklar— yaxshilikka yetaklar" deb bejizga aytishmagan. Ertaklar yordamida bolalarni ma'naviy olami boyiydi, og'zaki nutqi, diqqati, xotirasi, tafakkuri rivojlanadi.

Boshlang'ich sinflarda ertaklar orqali bolalarni nutqini o'stirish quydagicha amalga oshiriladi:

Ertakni o'quvchilarga bir necha marta o'qib berish, so'ngra o'qituvchi "yana bir marta o'qib beraymi?" "mazmun mohiyatini tushundingmi?" kabi savollarni berish kerak. Keyin o'quvchi shu ertakni mustaqil ravishda o'qish orqali ertakni qayta hikoya qilib berishni so'rash lozim. O'quvchilar o'qigan ertagini qayta hikoya qilib berish orqali ularning og'zaki nutqi rivojlanadi. Ertakni eshitish davomida esa o'quvchidan





diqqatli bo'lish talab qilinadi. Har bir ertakni o'z g'oyasi yunalishi mavjud. Masalan "Sholg'om" ertagi o'quvchilarni fikrlashga voqealarni ketma-ket aytishga undaydi. "Bo'g'irsoq" ertagida qiyin vaziyatlardan qanday qilib chiqib ketish haqida so'z boradi.

Har bir ertakni zamirida bir yaxshilik yotadi. O'quvchilardan o'qigan ertaklarni mazmunini tushunish va unlarni qayta hikoya qildirish zarur. Hikoya qilib berganlaridan so'ng ularni mustaqil fikrlashga undash "Agar sen shu qahramonning o'rnida bo'lganingda nima qilarding?", " Qaysi qahramon to'g'ri yul tutdi?" , " Qaysi qahramonning o'rnida bo'lishni hoxlaysan?" " Nega aynan shu qahramon" kabi savollarni berib, ularni erkin muloqotga chorlash ularni faolligini oshiradi.

Ertakda keltirilgan yangi so'z va iboralar, maqollar ustida ishlash o'quvchilarning ertak mohiyatini, asl g'oyasini tushunishi bog'lanishli nutqini rivojlanishiga xizmat qiladi. " Sholg'om" ertagida o'quvchilarda voqealarning ketma-ketligini anglashga " kuch birlikda" degan g'oyani ilgari so'rilganini anglab yetadilar. Unda uchraydigan yangi so'zlarni o'zi bog'lanib kelgan so'zlar bilan anglash o'quvchilarda lug'at boyligini kengaytiradi. Ertak matni ustida ishlashda unday uchraydigan badiiy va tasviriy vositalar, mubolag'alar, jonlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ertak mazmunini tahlil qilish bolalarda mustaqil xulosalar chiqarish savol-javob olib borish o'quvchilarda og'zaki nutqini ravon rivojlanishiga xizmat qiladi. O'qituvchi tomonida o'qib berilgan ertakdan o'quvchilar o'zlari uchun to'g'ri xulosa chiqarishlarni uni tahlil va muhokama qilishlari, berilgan savollarga aniq va ravon javob berishlari orqali o'quvchi shaxsida og'zaki nutq ko'nimasi shakllandi. Ertakni qismlarga bo'lib o'qish qismlarga bo'lib tahlil qilish qahramonlarni taqqoslash yoki ertakni davom ettirish orqali nutq ko'nikmasini shakllantirish.

Badiiy asar ustida ishlash boshlang'ich sinf o'quvchilari ertaklar ustida ishlash orqali og'zaki nutqi rivojlanishiga so'z boyligi oshishiga , yordam beradi. Ta'lim jarayonida ertaklarni o'qitish orqali og'zaki nutqi balki, muloqot madaniyati ham shakllanadi. Ertak ustida ishlash bola nutqini yangi so'z va iboralar bilan boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. // Barkamol avlod. O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: SHarq, 1997.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. // Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: SHarq, 1997.





Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. science and education scientific journal volume 3, issue 3 march 2022 442-4478.

Olimov L.Ya, Avezov O.R., Baratov Sh. R. Psixologiya nazariyasi va tarixi (o'quv qo'llanma) <https://library.sammi.uz/Library/> 1 (1), Ўзбекистон

Zunnunov A. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. T.: O'qituvchi, 1992.

A. D. (2022). On the Example of Abdulla Avloni, The hero of the national Awakening period. Middle European Scientific Bulletin

A. D. (2023). Methods of Teaching Students to Grammatical Analysis in Mother Language and Reading Literacy Lessons. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 18, 164-166.

Usmanovna, A. D., & Nortazhova, Z. A. (2023). Improving Technologies of Integrative Approach to Mother Language and Reading Literacy Lessons. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 18, 167-169.

Mamatova. G Boshlang'ich sinf o'quvchilarida adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi.–T.: Istiqlol

Bolalarensiklopediyasi 6-nashri.-T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti.

S.I.Tursunova The development of oral speech of younger schoolchildren in extracurricular activities. Eurasian Research Bulletin, 2022.

S.I.Tursunova Pedagogical bases of nationalization of school education. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3 (02), 456–461.

Турсунова, С. И. (2023). Причины выбора модели внеучебной деятельности по развитию устной речи младших школьников.

Tursunova, S. (2024). Innovatsion yondashuv asosida boshlang 'ich sinf o 'quvchilarining og 'zaki nutqini rivojlantirishning asosiy mazmuni. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(10), 176-185.

Ismatova, N., & Tursunova, S. I. (2023). BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISH, TILSHUNOSLIK USLUBIY MUAMMO SIFATIDA. Interpretation and researches, 2(1).





Allaberganova, Y., & Tursunova, S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH. Interpretation and researches, 2(1).

Hikmatov, I., & Tursunova, S. (2023). Bo'lajak boshlang'ich sinfi o'qituvchilarini ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlashning imkoniyatlari. Interpretation and researches, 2(1).

Турсунова, С. И. (2022). БОШЛАНГИЧ СИНИФИ ўҚУВЧИЛАРИДА ИҚТИСОДИЙ ТАРБИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Scientific Impulse, 1(4), 397-399.

Турсунова, С. И. (2022). БОШЛАНГИЧ СИНИФИ ўҚУВЧИЛАРИДА ЭСТЕТИК ТАРБИЯНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Scientific Impulse, 1(4), 393-396

